

NOVERBAL DIALOGIZMLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Sabitova Iroda Srajiddinovna

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

“Amaliy ingliz tili kafedra”si dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada noverbal dialogizmlarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Muloqot jarayonida ogʻzaki boʻlmagan vositalar – imo-ishora, yuz ifodalari, tana harakati, proksemika, intonatsiya kabi elementlar – bevosita semantik yukni tashimagan holda, maʼlumotni uzatish, munosabat bildirish va kommunikativ niyatni anglatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Mazkur vositalarning pragmatik ahamiyati ularning kontekstual holatlarga bogʻliq tarzda turlicha talqin qilinishida namoyon boʻladi. Tadqiqotda noverbal dialogizmlarning anglatish, taʼsir oʻtkazish, muloqotga yoʻnaltirish va ijtimoiy maqomni belgilashdagi funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, ularning madaniyatlararo tafovutlari va muloqot samaradorligiga taʼsiri lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: noverbal dialogizm, pragmatika, muloqot, imo-ishora, tana tili, kontekst, ijtimoiy maqom, lingvopragmatika

Til insoniyatning eng asosiy muloqot vositasi sanaladi. Biroq muloqot faqat ogʻzaki yoki yozma soʻzlar orqali emas, balki ogʻzaki boʻlmagan vositalar orqali ham amalga oshiriladi. Ana shunday vositalar sirasiga noverbal dialogizmlar kiradi. Ular insonlar oʻrtasidagi muloqotni toʻldiribgina qolmasdan, ayrim holatlarda toʻlaonli maʼlumot yetkazish, kommunikativ niyatni ochib berish, munosabat bildirish, hissiy holatni ifodalash, hamda ijtimoiy maqomni anglatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Noverbal dialogizmlarning eng muhim xususiyatlaridan biri – ularning pragmatik jihatdan koʻp qatlamli va kontekstga bogʻliq boʻlishidir. Boshqacha aytganda, bunday vositalar oʻz-oʻzicha emas, balki muloqotning vaziyatli, ijtimoiy va madaniy konteksti asosida maʼno kasb etadi.

Inson harakati, yuz ifodasi, tana holati, nigoh, ovoz ohangi, imo-ishora kabi elementlar orqali bir vaqtning oʻzida bir nechta kommunikativ niyatlarni ifodalashi mumkin. Masalan, tinglovchi suhbat davomida boshini qimirlatishi rozilik, tushunish, qiziqish yoki shunchaki odob belgisi sifatida qabul qilinadi. Ammo bu harakatning asl maʼnosi u kim bilan, qanday vaziyatda, qaysi madaniyat doirasida muloqot qilayotganiga bogʻliq. Demak, noverbal dialogizmlarning pragmatik xususiyati – bu ularning kontekstual (vaziyatga xos) va funksional (maqsadga qaratilgan) boʻlishida namoyon boʻladi.

Noverbal vositalar muloqotda bir necha asosiy funksiyalarni bajaradi: axborot uzatish, munosabat ifodalash, muloqotga yoʻnaltirish, taʼsir koʻrsatish, ijtimoiy

maqomni bildiruvchi, emosional ahvolni ifodalovchi va kontakti qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, biror kishi suhbat davomida ko'zlarini uzoqqa qaratsa yoki yerdan uzmasa, bu uning noqulaylik yoki qiziqmaslik holatini bildirishi mumkin. Shu bilan birga, ko'z bilan aloqa qilish esa diqqat, ishonch va ochiqlik belgisi bo'lib xizmat qiladi. Pragmatik yondashuvda ushbu elementlar faqat yuzaki tavsiflanmasdan, balki ularning real muloqotdagi ahamiyati, natija beruvchi kuchi va kommunikativ samaradorlikka ta'siri chuqur o'rganiladi.

Pragmatika nuqtai nazaridan, noverbal dialogizmlar insonlar o'rtasida ijtimoiy roli va maqomini belgilab beruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilidagi rasmiy muloqotda shaxslar orasida ma'lum masofa saqlanadi – bu proksemik norma bo'lib, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy masofani, hurmat va betaraflikni bildiradi. Biroq norasmiy suhbatda esa bu masofa qisqaradi va jismoniy yaqinlik (masalan, do'stona yelka urish, qo'l berish) muloqotni ishonchli va iliq qiladi. Ushbu hodisalar har doim ham so'z bilan aytilmaydi, balki aynan noverbal vositalar orqali tushuniladi.

Noverbal dialogizmlar, ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda muhim pragmatik ahamiyatga ega. Chunki har bir xalqning madaniy an'analari, qadriyatlari va muloqot odoblari o'ziga xos bo'ladi. Masalan, bir madaniyatda "boshni quyi egish" hurmat belgisi bo'lsa, boshqasida bu bo'ysunish yoki ojizlik belgisi sifatida talqin qilinadi. Shu bois, pragmatik yondashuv noverbal vositalarni faqat jismoniy harakat sifatida emas, balki axborot uzatuvchi va ta'sir o'tkazuvchi madaniy-belgilangan birlik sifatida tahlil qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, noverbal dialogizmlar ko'pincha verbal muloqotni to'ldiradi, mustahkamlaydi yoki unga zid keladi. Masalan, kishi "ha" deb aytar ekan, boshini chayqashi bu gapning samimiy emasligini yoki aksincha, iroda bilan berilgan javob emasligini bildiradi. Shunday qilib, noverbal vositalar orqali bildirgan signal verbal mazmunga mos kelsa – muloqot samarali kechadi. Aks holda esa kommunikativ xatolik yuzaga keladi.

Lingvopragmatik yondashuvda noverbal vositalarning ahamiyati ularning interpersonal, ya'ni insonlararo munosabatni shakllantirishdagi rolini yoritish orqali yanada chuqurlashadi. Ular orqali insonlar bir-birining ichki holatlarini anglaydi, psixologik yaqinlikni sezadi va hissiy jihatdan ta'sir o'tkazadi. Shu sababli, bunday vositalarning pragmatik tahlili faqat tilshunoslik emas, balki psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, zamonaviy mediatexnologiyalar rivojlanishi bilan, noverbal dialogizmlarning yangi shakllari – masalan, emoji, gif, mimik ifodali stikerlar ham virtual muloqotda pragmatik yuk tashuvchi vositalar sifatida shakllanmoqda. Ular ham xuddi real muloqotdagi imo-ishora, yuz ifodasi kabi rol o'ynaydi. Bu esa

noverbal dialogizmlarning qamrovini va zamonaviy muloqotdagi dolzarbligini yana-da kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, noverbal dialogizmlar muloqotda insoniyat tafakkurining nafaqat estetik, balki funksional, ijtimoiy va madaniy qirralarini ham ifoda etuvchi vositalardir. Ularning pragmatik xususiyatlari esa ularni shunchaki muloqotni bezovchi emas, balki kommunikatsiyaning faol ishtirokchisi sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Har bir noverbal birlik – u imo, holat, koʻz ifodasi yoki proksemik harakat boʻlishidan qatʼi nazar – oʻz kontekstida axborot yuklaydi, aks sado beradi va aloqa samaradorligiga taʼsir qiladi. Shu bois, noverbal dialogizmlarni pragmatik jihatdan oʻrganish zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim va dolzarb yoʻnalishlaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Argyle, M. (1988). Bodily Communication. London: Methuen & Co Ltd.
2. Knapp, M. L., & Hall, J. A. (2010). Noverbal Communication in Human Interaction (7th ed.). Boston: Wadsworth Cengage Learning.
3. Burgoon, J. K., Guerrero, L. K., & Floyd, K. (2016). Noverbal Communication (2nd ed.). Routledge.
4. Ekman, P. (2004). Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. New York: Henry Holt and Co.
5. Karimova, Z. M. (2016). Pragmatika va nutq faoliyati nazariyasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.